# Kirish turizmini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining**

**Q A R O R I**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasi turizm salohiyatini rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish bo‘yicha qo‘shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi 2018-yil 3-fevraldagi PF-5326-son Farmonini ijro etish, shuningdek, respublikaga turistlar oqimini ko‘paytirish, kirish turizmini milliy iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biriga aylantirish, mamlakatning madaniy-tarixiy merosi va tabiiy boyliklarini keng targ‘ib qilish maqsadida:

1. Quyidagilar:

Viza rejimini yanada soddalashtirish bo‘yicha amaliy chora-tadbirlar rejasi 1-ilovaga muvofiq;

Kirish turizmini yanada rivojlantirish bo‘yicha amaliy chora-tadbirlar rejasi 2-ilovaga muvofiq;

Turizmni rivojlantirish masalalarida o‘zaro hamkorlikni faollashtirishni ta’minlash bo‘yicha mas’ullar biriktiriladigan mamlakatlar va hududlar ro‘yxati 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. 2018 yil 1 maydan boshlab tranzit bo‘yicha harakatlanayotgan xorijiy yo‘lovchilarga kelishlari bilan 72 soat muddatga qisqa muddatli kirish vizalarini berish joriy etilsin, bunda ularda uchinchi mamlakatga aviachipta va viza (zarurat bo‘lganda) mavjud bo‘lishi hamda konsullik yig‘imlarini to‘lash talabi, shuningdek, tasdiqlangan turizm dasturlari bo‘yicha tanishuv turlari uchun ularning aeroport chegara hududidan tashqariga qisqa muddatli nazorat qilinadigan chiqishi tartibi nazarda tutilsin.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi ikki oy muddatda ushbu bandni amalga oshirish bo‘yicha, shu jumladan, fuqarolari kelishlari bilan qisqa muddatli kirish vizalari beriladigan mamlakatlar ro‘yxatini tasdiqlashni nazarda tutuvchi Hukumat qarorini qabul qilsin.

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo‘yicha qo‘mita, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi va Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasining O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo‘yicha qo‘mitada Ziyorat turizmini qo‘llab-quvvatlash bo‘limini tashkil etish to‘g‘risidagi taklifi ma’qullansin, unga ommaviy

axborot vositalarida, shu jumladan, xorijiy ommaviy axborot vositalarida Oʻzbekiston toʻgʻrisida Islom dini va boshqa jahon dinlarining madaniy-tarixiy va ilmiy-teologik markazi sifatida axborot materiallarini targʻib qilish va tarqatish yuklansin.

4. Oʻzbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qoʻmitasi Tashqi ishlar vazirligi, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari boʻyicha qoʻmita va boshqa manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda ikki oy muddatda Vazirlar Mahkamasiga tasdiqlash uchun:

ustuvor mamlakatlar va hududlardan Oʻzbekiston Respublikasiga turistlar oqimini koʻpaytirish boʻyicha “yoʻl xaritalari”ni;

Oʻzbekiston Respublikasida ziyorat turizmini rivojlantirish boʻyicha amaliy chora-tadbirlar rejasini kiritsin.

5. Oʻzbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qoʻmitasi va «Oʻzbekiston havo yoʻllari» MAK Oʻzbekiston Respublikasining xorijdagi diplomatik vakolatxonalarini Oʻzbekistonning turizm imkoniyatlarini namoyish etadigan zarur axborot materiallari bilan taʼminlasin, shuningdek, zarurat boʻlganda, Oʻzbekiston Respublikasining xorijdagi diplomatik vakolatxonalariga joylashgan mamlakatida «Oʻzbekiston» turizm brendini targʻib qilishga bagʻishlangan tadbirlarni oʻtkazish uchun byudjetdan tashqari Turizm sohasini qoʻllab-quvvatlash jamgʻarmasidan mablagʻlar ajratsin.

6. Oʻzbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi Moliya vazirligi va Turizmni rivojlantirish davlat qoʻmitasi bilan birgalikda ikki oy muddatda xorijiy turistlarni jalb qilish prognozini va Oʻzbekiston Respublikasining xorijdagi diplomatik vakolatxonalari rahbarlari va xodimlarini joylashgan mamlakatdan turistlar oqimini koʻpaytirganlik uchun byudjet mablagʻlari hisobidan mukofotlash, shuningdek, respublikaga turistlar oqimini oshirish boʻyicha yuklangan vazifalarni lozim darajada bajarmaganligi uchun javobgarlik choralarini qoʻllash tartibini ishlab chiqsin va Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga tasdiqlash uchun kiritsin.

«Oʻzbekiston havo yoʻllari» MAKga Oʻzbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qoʻmitasi bilan kelishgan holda xorijiy turistlarni jalb qilish prognozini tasdiqlash hamda «Oʻzbekiston havo yoʻllari» MAKning xorijdagi vakolatxonalari rahbarlari va xodimlarini joylashgan mamlakatidan turistlar oqimini koʻpaytirganlik uchun oʻz mablagʻlari hisobidan mukofotlash, yuklangan vazifalarning bajarilishi taʼminlanmagan holatlarda esa, javobgarlik choralarini qoʻllash tizimini joriy etish tavsiya etilsin.

7. «Oʻzbekiston havo yoʻllari» MAKga qatnovlar raqobatbardoshligini taʼminlash maqsadida xalqaro qatnovlar uchun aviachiptalarni tannarxidan past narxlarda sotish huquqi berilsin.

Oʻzbekiston Respublikasi Moliya vazirligi «Oʻzbekiston havo yoʻllari» MAK bilan birgalikda ikki oy muddatda «Oʻzbekiston havo yoʻllari» MAKning soliq solinadigan bazasini arzonlashtirilgan narxlar boʻyicha sotilgan aviachiptalar summasiga kamaytirish mexanizmini joriy etsin.



8. Oʻzbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qoʻmitasi:

2018 yil 1 martgacha turistlarga tezkor yordam koʻrsatish uchun yagona qisqa umumrespublika telefon raqamiga ega boʻlgan Call-markazning faoliyati autsorsing shartlarida tashkil etilishini taʼminlasin;

Oʻzbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Milliy xavfsizlik xizmati, Sogʻliqni saqlash vazirligi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Davlat bojxona qoʻmitasi, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari, boshqa manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda Call-markazga murojaat qilgan turistlarga tezkor yordam koʻrsatish masalalarida idoralararo oʻzaro hamkorlikni taʼminlasin.

Belgilansinki, Oʻzbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qoʻmitasining Sall-markazi faoliyat yuritishi bilan bogʻliq xarajatlar byudjetdan tashqari Turizm sohasini qoʻllab-quvvatlash jamgʻarmasining mablagʻlari hisobiga moliyalashtiriladi.

9. Belgilansinki:

turistlar uchun yoʻnalishni moʻljalga olishni yengillashtirish maqsadida chet tillaridagi (ingliz, rus va boshqa tillarda) koʻrsatkichlarni oʻrnatish tashabbusi bilan chiqqan xoʻjalik yurituvchi subyektlarga ushbu koʻrsatkichlarda ular tomonidan ishlab chiqariladigan mahsulotlar (xizmatlar va ishlar)ning reklamasini joylashtirish huquqi beriladi, bunda reklama sohasiga oid qonunchilik talablariga rioya qilinishi taʼminlangan holda joylashtirilayotgan reklamaning umumiy maydoni koʻrsatkich maydonining 40 foizidan koʻp boʻlmasligi lozim;

turistlar tomonidan jamoat joylari, bino va inshootlarni foto va video suratga olish hech qanday cheklovlarsiz amalga oshiriladi, roʻyxati qonun hujjatlariga muvofiq tasdiqlanadigan hamda barcha turdagi suratga olishlar taqiqlanganligi haqidagi tegishli koʻrsatkichlar oʻrnatilgan obyektlar bundan mustasno.

10. Oʻzbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qoʻmitasi, Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish davlat qoʻmitasi va Madaniyat vazirligi har chorakda va yil yakunlariga koʻra respublikaning turizm imkoniyatlari va salohiyati, uning tarixiy shaxslari, tarixi, madaniyati, anʼanalari, sporti toʻgʻrisidagi eng yaxshi video, foto va audiomateriallarni aniqlash boʻyicha tanlovni tashkil qilish va oʻtkazish orqali mahalliy va chet ellik gʻoliblarni aniqlagan holda tegishlicha byudjetdan tashqari Turizm sohasini qoʻllab-quvvatlash jamgʻarmasi, byudjetdan tashqari Ekologiya, atrof muhitni muhofaza qilish va chiqindilarni yoʻq qilish boʻyicha jamgʻarma hamda Madaniyat va sanʼatni rivojlantirish jamgʻarmasining mablagʻlari hisobiga taqdirlashni taʼminlasin.

11. Qoraqalpogʻiston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari Oʻzbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qoʻmitasi bilan kelishgan holda 2018 yildan boshlab har yili daromadlar prognozi ortigʻi bilan bajarilgan mablagʻlar va boshqa byudjetdan tashqari manbalarning mablagʻlari hisobiga xalqaro turizm koʻrgazmalari va yarmarkalarida ishtirok etish, keyinchalik chet el jamoatchiligi orasida tarqatish maqsadida tegishli axborot materiallarini tayyorlash hamda xorijiy ommaviy axborot vositalarida reklama kampaniyalarini ishga solish orqali hududlarning turizm salohiyatini targʻib qilish uchun mablagʻlar ajratsin.



12. Oʻzbekiston Respublikasi Davlat bojxona qoʻmitasi manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda ikki oy muddatda oltin buyumlar hamda belgilangan tartibda tayyorlangan oʻlchovli yombilar xorijiy turistlar tomonidan Oʻzbekiston Respublikasidan olib chiqilishi tartibining soddalashtirilishini nazarda

tutadigan Hukumat qarori loyihasini Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga kiritsin.

13. Oʻzbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qoʻmitasi ikki oy muddatda:

Madaniyat vazirligi va «Oʻzbekkino» milliy agentligi bilan birgalikda Oʻzbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qoʻmitasi, Madaniyat vazirligi hamda «Oʻzbekkino» milliy agentligining buyurtmanomalariga koʻra xorijiy ijodiy guruhlarga respublikaning turizm salohiyati toʻgʻrisidagi foto va videomateriallarni tayyorlash uchun uchuvchisiz uchish apparatlarini, jumladan, dronlarni Oʻzbekiston Respublikasi hududiga vaqtincha olib kirish va ulardan foydalanish uchun ruxsatnomalarni berish tartibini koʻzda tutadigan Hukumat qarori loyihasini Vazirlar Mahkamasiga kiritsin;

2018 yil 1 iyulgacha boʻlgan muddatda “Oʻzbekiston havo yoʻllari” MAK, Oʻzbekiston Respublikasi Parvozlar xavfsizligini nazorat qilish davlat inspeksiyasi va Qashqadaryo viloyati hokimligi bilan birgalikda ilgʻor xorijiy tajribani oʻrganish asosida “Qarshi” xalqaro aeroportini “Oʻzbekiston havo yoʻllari” MAKning tarkibidan chiqarib, xalqaro aeroportlarni boshqarish boʻyicha maxsus kompaniya boshqaruviga berish, aeroport hududida “Ochiq osmon” rejimini, shu jumladan, loukoster aviakompaniyalarini jalb qilgan holda joriy qilishni nazarda tutuvchi “Qarshi” xalqaro aeroportini rivojlantirish konsepsiyasini Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga kiritsin.

14. Oʻzbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 16 avgustdagi PQ-3217-son qarori bilan tashkil etilgan Xorijlik turistlar, jumladan, ziyorat qilish maqsadida kelayotgan turistlar uchun viza va roʻyxatdan oʻtish tartibotlarini bosqichma-bosqich soddalashtirishga doir takliflar tayyorlash boʻyicha ishchi guruhga har chorakda tegishli maʼlumotlar kiritgan holda ushbu qaror bilan tasdiqlangan Viza rejimini yanada soddalashtirish boʻyicha amaliy chora-tadbirlar rejasining amalga oshirilishi ustidan doimiy nazorat oʻrnatsin.

15. Oʻzbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qoʻmitasi Tashqi ishlar vazirligi bilan birgalikda:

ushbu qaror bilan tasdiqlangan Kirish turizmini rivojlantirish boʻyicha amaliy chora-tadbirlar rejasi manfaatdor vazirliklar va idoralar tomonidan bajarilishi ustidan doimiy monitoring olib borilishini;

monitoring yakuniga koʻra Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 16 avgustdagi PQ-3217-son qarori bilan tashkil etilgan Turizmni rivojlantirish boʻyicha muvofiqlashtiruvchi kengashga rejalashtirilgan chora-tadbirlarning belgilangan muddatlarda soʻzsiz bajarilishini taʼminlash maqsadida tegishli qarorlarni qabul qilish uchun har chorakda takliflar kiritib borilishini taʼminlasin.

16. Turizmni rivojlantirish boʻyicha muvofiqlashtiruvchi kengash (A.Aripov):

ushbu qarorda nazarda tutilgan tadbirlarning soʻzsiz, oʻz vaqtida va sifatli bajarilishi ustidan doimiy va tizimli nazorat tashkil etilishini;



vazirliklar, idoralar va boshqa tashkilotlar rahbarlari – masʼul ijrochilarning ushbu qaror bilan tasdiqlangan

Kirish turizmini yanada rivojlantirish boʻyicha amaliy chora-tadbirlar rejasining soʻzsiz bajarilishi yuzasidan ular tomonidan koʻrilayotgan amaliy choralarning har chorakda eshitilishini taʼminlasin.

17. Oʻzbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qoʻmitasi manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda ikki oy muddatda qonun hujjatlariga ushbu qarordan kelib chiqadigan oʻzgartirish va qoʻshimchalar toʻgʻrisidagi takliflarni Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga kiritsin.

18. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish Oʻzbekiston Respublikasining Bosh vaziri A.N.Aripov, Oʻzbekiston Respublikasi Bosh vazirining oʻrinbosari S.R.Xolmuradov va Oʻzbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qoʻmitasining raisi A.A.Abduxakimov zimmasiga yuklansin.

**Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti** **SH.MIRZIYOYEV**

Toshkent shahri, 2018-yil 6-fevral

manba: O`zA
2018-02-07 15:13:42